

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833958>

**Absattarova Shaxlo**

*JDPU, magistratura yo'nalishi,  
2- bosqich talabasi.*

**Ilmiy rahbar: M.Usmanova**

*JDPU, maktabgacha ta'lim metodikasi  
kafedrasi v.b. dotsenti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagи bolalarning ijodkorlik qobiliyatini va tasavvurlarini rivojlantirishdagi maqsadli ishlarni amalga oshirish yo'llari berilgan.*

### **Kalit so'zlar.**

*ijodkorlik, tasavvur, qobiliyat, ijodiyot, faoliyat.*

### **Abstract.**

*This article provides ways to implement targeted work on the development of creativity and imagination of preschool children.*

### **Key words.**

*creativity, imagination, ability, creativity, activity.*

### **Аннотация.**

*В данной статье представлены способы реализации целенаправленной работы по развитию творчества и воображения дошкольников.*

### **Ключевые слова.**

*творчество, воображение, способность, творчество, активность.*

Jahon ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya dasturlarini maqsad va vazifalarini takomillashtirishda va bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Jumladan Yevropa davlatlarida ta'lim, tarbiya va bola huquqlarini hurmat qilish dasturlarini, Yaponiyada ota - onalar bilan tarbiyachi o'rtasida kundalik axborot almashish dasturi, Kariyada ota-onalar bilan tarbiyachilar xamkorligining yo'lga qo'yilganligi hamda bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish dasturi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha bo'lgan yoshda bolada har tomonlama uyg'un rivojlanish kuzatiladi. Psixologlar va pedagoglar shunday xulosaga kelishdiki, maktabgacha yoshdag'i bolada ijodga bo'lgan layoqatni erta rivojlantirish kelajagidagi omadga qo'yilgan garovdir. Estetik tarbiya - bu davomli hamda murakkab jarayon bo'lib, bunda bolalar san'atga bo'lgan ilk taassurotlarini xosil qiladilar, ijodiyot bilan to'qnashadilar, ijodiy faoliyatning turlari bilan shug'ullanadilar. Bundan ijod faoliyat turlari orasida tasviriy san'at, ganch, applikatsiya, loyihalash yetakchi o'rinni egallaydi. Erta yoshdan bolada ajoyibot hissi, estetik zavq rivojlanishi muhim, san'at asarlarini, ona tabiyatning go'zalliklarini tushunish hamda baholay olishi lozim. Bu esa o'z navbatida har tomonlama rivojlangan boy ruhiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola tabiatan sinchkov tadqiqotchi, olamning ixtirochisi. Shunday ekan ular qarshisida ajoyib dunyo yorqin ranglarda, yorqin va xayajonli ovozda, ertaklarda hamda o'yinlarda, shaxsiy ijodda, odamlarga egulik ulashuvchi xolatda namoyon bo'lsin. Ertak, fantaziya, o'yin orqali, bundan tashqari bolaning takrorlanmas ijodi orqali bolaning qalbiga to'g'ri yetib boriladi.

Tasviriy faoliyat bolalar uchun qiziqarli va jozibadordir, bunda qalam, bo'yoq, plastilin, loy bo'lagi yoki qog'oz parchasi orqali bola atrofdagi xodisa haqiqatlar haqidagi o'z ta'ssurotini yetkazib bera oladi. Bu jarayon unda xursandchilik va ajablanish hissini uyg'otadi.

"Ijodiyot" tushunchasi bu - yakunida bola yangi, takrorlanmas, o'z xayolotini ishga solgan holda orzu niyatlarini shuning vositasida amalga oshirsa bo'ladigan jarayon sifatida qaraladi. Ijod qilish istagi - bolaning ichki extiyoji bo'lib u mustaqil yuzaga chiqadi va samimiyligi bilan ajralib turadi.

Mualliflik ishlarini ko'rib chiqar ekanmiz, maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan ishlashda tasviriy faoliyatga noan'anaviy yondashuvni tadbiq etish imkoniyati bilan qiziqdik. Noan'anaviy tasvirlash texnikasi jihoz va asboblarning noodatiy birlashuvini namoyish qiladi. Ularning bajarilish texnikasi kattalar kabi bolalar uchun ham birdek qiziqarli va oson bo'ladi.

Bolalarni yassi qog'oz bo'lagi bilan rasm chizishga, havo oqimini puflashga, qattiq mo'yqalam bilan nam fonda chizishga, matoga chizishga, g'ijimlangan qog'oz bo'laginiing izi bilan chizishga o'rgatish mumkin. Turli materiallardan foydalanganda erkin tanlov yuzaga keladi bu esa ijodiy faoliyatda muhimdir. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlari bolalarda ma'lum sifatlarni rivojlantiradi. Ganch bilan ishlashda bola buyumning hajmini o'rganadi, bo'laklari bilan ishlaganda ikki qo'llab ishslash ko'nikmasi paydo bo'ladi, xarakatlarini

muvofiglashtirishni o'rganadi, qo'llarning mayda muskullari faol ravishda rivojlanadi bu esa o'z navbatida tafakkurni, ko'z bilan chamalashni, makonga oid fikrlashni rivojlantiradi. Bolalarga plastilin yasash yoki u yordamida tasvirni tasvirlash texnikasini taklif qilish mumkin. Bunda faqat karton qog'ozgagina chizilmaydi. Agar bunda organiq oynadan foydalanilsa tasvir haqiqiydek bo'lib chiqadi.

Tuzli xamirdan buyumlar tayyorlash texnikasi plastilin va loydan yasash texnikasi bilan bir hil lekin bunda xomashyoni bolalar o'z qo'llari bilan suv va undan tayyorlashadi. Tuzli xamirdan turli buyumlar va tasvirlarni paydo qilishda foydalansa bo'ladi.

"Applikatsiya" tushunchasi turli materiallardan ularning xususiyati hamda o'ziga xosligiga ko'ra foydalangan holda san'at asarini yaratishni anglatadi. Ular: qog'oz, somon, quritilgan o'simliklardir. Bunda po'stloqlar fonga turli yelimlar yordamida yopishtiriladi; mato, charm va jun tiqiladi; terakning pari, paxta duxoba matoga yelimsiz biriktiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi badiiy mehnat malakalarini, estetik tasavvurlarining shakllanishini va bolalar badiiy ijodkorligining rivojlanishini ko'zda tutadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mezon, prinsiplari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil rasmlar chizish, loydan narsalar yasash, qirqib yelimlash, qurish-yasashga o'rgatish vazifalari, mazmuni, uslubiyoti bilan tanishtiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
2. 2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim-tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Prezidentining qarori.
3. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma.T.: ,2001.
4. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari.T.:O'zPFITI 2015
5. Usmanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY MASHG'ULOTLARNING O'RNI. Maktabgacha

ta'lim jurnali, 1(1). Retrieved from <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/147>

6. Maxfuzा. (2022). BOLALARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. Maktabgacha ta'lim jurnali, 4(4). Retrieved from <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/5707>